

**MAKTAB DARSLIKLARIDA NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA
LUG'ATLARNING O'RNI VA IZOHI BERILISHI KERAK BO'LGAN SO'ZLAR,
5-SINF ADABIYOT DARSFIGI UCHUN MAVZULASHTIRILGAN IZOHLI
O'QUV LUG'AT NAMUNALARI**

Sultonova Matluba Abdusamadova¹

¹ *Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

2-kurs magistranti

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.11.2024

Revised: 26.11.2024

Accepted: 27.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

*Navoiy, lug'at, izohli
o'quv lug'at, adabiyot,
darslik, til*

Til millatning ruhidir. Tildagi barcha imkoniyatlardan foydalanish har bir inson uchun, albatta, yengillik, tushunarlik, unumdorlik tug'diradi. O'quvchilar bilimining samaradorligini oshirishda maktab darsliklari muhim rol o'ynaydi. Maqolada 5-sinf darsligida Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda lug'atlarning o'rni va izohi berilishi kerak bo'lgan so'zlar, 5-sinf adabiyot darsligi uchun mavzulashtirilgan izohli o'quv lug'at namunalari tuzish xususida so'z boradi.

KIRISH. Har bir tilning asosini, albatta, uning leksikografiyasi, lug'at boyligi tashkil qiladi. O'quvchida lug'at boyligining yetarlicha ekanligi darsning samaradorligini oshiradi. Lug'at boyligining ko'pligi nafaqat dars jarayonlarida balki, ijtimoiy, maishiy munosabatlarda ham muhim rol o'ynaydi. Til bu—muloqot. Insoniyat uchun axborot almashunuvida, muloqotda, tushunish, tushuntira olishda so'z bilish, bilishda ham izohi, ma'nosi bilan bilish foydadan holi emas.

Ushbu maqolada maktab darsliklarida Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq berilayotgan lug'atlar bilan o'quvchi qay darajada mavzuni o'zlashtirayotganligini, tushunayotganligini, lug'atlarning berilish tartibi, izohlanishi kerak bo'lgan so'zlar qatorini ko'rib chiqamiz.

5- sinflar uchun 2020- yil nashr etilgan adabiyot darsligida Navoiyning hayoti va ijodidan "Hayrat ul-abror" dostonidan "Sher bilan durroj", "Egrilik va to'g'rilik" to'g'risida hikoyatlar berilgan. Navoiy hayoti bilan bog'liq o'quvchi uchun notanish bo'lgan so'zlar deyarli uchramaydi. Ammo hikoyatda izohi berilishi kerak bo'lgan so'zlar bor.

Darslikda beriladi:

Durroj – kaptarning bir turi , qirg‘ovil.

Hikoyatda “**aysh**” so‘zi uchraydi . **Aysh** va **xursandchilik** tarzida . O‘quvchi uchun bu so‘z notanish va izohi berilishi kerak bo‘lgan so‘z hisoblanadi.

Aysh – yaxshi turmush, ko‘ngilxushlik .

E. Fozilov o‘zining “**Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati**” ning 1 jildida aynan shu izohni berib o‘tgan. Yuqorida keltirilgan so‘z hikoyatning nasriy bayonidan olingan. Albatta, nazmni o‘quvchiga tushuntirish nafaqat lug‘at balki, o‘qituvchining mahoratini ham talab qiladi.

Hikoyatda “**nag‘ma**” so‘zi uchraydi. Biz so‘zning ma‘nosini 11- sinf o‘quvchilaridan so‘rab ko‘rdik. Ular so‘zning ma‘nosini “aldash” yolg‘on gapirish ma‘nosida izohlashdi. Ammo, Navoiy asarlariga bag‘ishlangan lug‘at manbalarda “**nag‘ma**” so‘zi –**kuy, navo, ohang** ma‘nolarini bergan.

Maktabda o‘quvchilar Navoiy hayoti va asarlarini 5-sinfдан boshlab kengroq o‘rgana boshlaydi. Shuning uchun darslikda ko‘proq Navoiy hayoti, asarlari bilan bogliq lug‘atlar izohlanishi kerak. Darslikda doston haqida ma‘lumot berilayotgan bir paytda, maqolat so‘zi uchraydi. Maqolatning izohi qanday ekanligini bilmasligi o‘quvchida mavzuni tushunish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Izohli lug‘atlarda maqolat so‘zining izohi quyidagicha izohlangan: so‘z, fasllar

5-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi mavzusiga tuzilgan namunaviy izohli o‘quv lug‘at

Nag‘ma

1. **Izohi:** navo, kuy , ohang , musiqa tovushi : Misol: Bu nag‘malardan benasib qolmang deb atayin uyg‘otdim, bir eshitib ko‘ring.

2.Musiqa asbobi(asosan labda chalinadigan). Misol: Hamma ketdi , qiz nag‘masini chalishda davom etdi.

3.**Sinonimi:** kuy, navo, ohang, musiqa

4.**Antonimi:** mavjud emas;

5. **Grammatik ma‘nosi:** Qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lana oladi. Nayning nag‘masi.

6. Inglizchada tarjimasi

Music

7. Nag‘ma so‘zining sinonimi berilmagan qatorni toping.

a) kuy;

b) ohang;

- c) navo;
- d) cholg'u;

Ushbu namunaviy o'quv lug'atlari orqali o'quvchilar so'zning ma'nosini tez tushunadilar va o'zlashtiradilar. Oxirgi qismda mashqlarning berilishi o'quvchi yana bilimni mustahkamlashi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent . 2020.; Sharq nashriyoti.:
2. E. Fozilov o'zining "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", Toshkent -1983-1985
3. Manzar Abdulxayr "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati". Toshkent - 2018. ;
4. Sayfiddin Rafiddinov "Navoiy asarlariga tuzilgan lug'at" ning yangi nashri haqida. Volume 4. Conference Proceedings1.2023
5. E.Fozilov. Alisher Navoiy asarlari lug'ati.– T.: "Niso poligraf", 2013.;